

“АХМАД ЯССАВИЙ” РОМАНИДА ЯССАВИЙ ОБРАЗИНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ

OMANOVA MUBORA,

TDPU dotsenti v.b.,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD

Annotatsiya: Maqolada Sa'dulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” roman-dilogiyasi yuzaga kelishining bir necha hayotiy va adabiy-ma'rifiy asoslari, ijodkor badiiy konsepsiyasi va “Ahmad Yassaviy” roman-dilogiyasi yuzaga kelishining hayotiy asoslari ilmiy asoslangan. Sa'dulla Siyoyevning poetik ijod onlaridagi fikr-o'ylari, tuyg'u-kechinmalari ixcham ifoda etilgan.

Kalit so'zlar: Badiiy, konsepsiya, shayx, tarixiy-biografik, adabiy, dilogiya, Siyoyev, Ahmad Yassaviy, ruhiyat, tasavvuf, roman, shariat, so'fiy, siymo

Shayx-valiylar siymosi tasvirlangan tarixiy-biografik romanlarning genetik ildizlari jahon adabiyotidagi agiografiya, hayotnoma, biografik portret, Qur'oni karim, hadisi sharif ruhi va o'zbek adabiyotidagi holot, qissa, manoqib, doston singari janrlarga tutashadi. Ularda inson ruhiyatini aks ettirish bilan bir qatorda, hujjatlilik va badiiylilik ham o'zaro uyg'un birikadi. Shu bois bu tipdagi romanlar diniy, tasavvufiy va tarixiy-adabiy manbalar bilan qiyosiy o'rganiladi.

“Ahmad Yassaviy” roman-dilogiyasi arxitektonik jihatdan ikki kitob va 36 fasldan iborat. Har bir fasl epigraf bilan ta'minlangan. Biz bu epigraflar orasida Qur'oni karim sura va oyatlari, Hadislar, qadimgi xalq qo'shiqlari, “Avesto” tarixiy-adabiy yodgorligidan olingan parchalar, Sharqona hikmatlar, Abduxoliq G'ijduvoni, Alisher Navoiy keltirgan qimmatli ma'lumotlar, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni, Yunus Emro, Nasimiy, Mashrab hikmatli satrlari, Junayd Bag'dodiy so'fiyona qarashlari, “Manoqib”lardan olingan turfa rivoyatlarni

uchratamiz. Albatta, ushbu purhikmat satrlar mazmunida Sa'dulla Siyoyevning Ahmad Yassaviy shaxsiyati, hayoti va tariqatiga bo'lgan g'oyaviy-emotsional munosabati ham aks etgan. Masalan, dilogiyaning "Qasamxo'ring jazosi" nomli ilk kitobi birinchi faslida Alisher Navoiy "Nasoyim"da keltirgan: "Xoja Ahmad Yassaviy Turkiston mulkining shayx-ul mashoyixidur. Maqomati oliy va mashhur, karomati mutavoliy va nomahsur ermish. Murid va as'hob g'oyatsiz va shohu gado aning irodat va ixlos ostonida nihoyatsiz ermish", – degan e'tirof-xabari epigraf sifatida beriladi. Yuqoridagi parcha shaklan qisqa, ixcham va lo'nda ekani bilan bir qatorda, mazmunan tanishtiruv xarakterida ekani bilan bog'liq belgi-sifatlar uning o'z o'rnida to'g'ri qo'llanganini ko'rsatadi. Bu faslda nafs yetovidagi qasamxo'r Shahobiddin "hoji"ning jazolanishi quyidagicha tasvirlanadi: "Shayx vujudiga jo bo'lgan va yolg'iz o'zigagina ma'lum ruhiy quvvatini jamlab hojining ko'zlariga qattiq tikildi. Shahobiddin chayqalib ketgandek bo'ldi. So'ng gandraklab ayvon chetiga qarab yurdi. Shayx hamon kalima keltirib o'tkir nigohi bilan uni ta'qib etib turibdi. Hoji "Changalingdan omon-eson qutuldim-a, Shayx, endi qalaysan?" degandek, mamnun iljaydi. Ana, u uzunchoq ayvon labiga bordi. "Bismillo!" deb zinadan tusha boshladi...

Shayxning qoramtir yuzi tundlashdi. Uning lablari bilinar-bilinmas qimirlab peshonasida gavhardek ter ko'rindi.

Ayvon ikki gazcha kelardi. Hoji uch zina o'tib, to'rtinchi zinaga borganda qoqildi. Oyog'i osmondan keldi. Uch dumalab pastga tushdi..."

Yozuvchi shariatga shak keltirib, birovning haqiga xiyonat qilishdan tap tortmaydigan, yolg'on fatvo bilan elning bir parcha noniga chang soladigan, ilm olib, o'z ilmiga amal qilmaydigan, munofiq va haris kimsaning jazosi muqarrar ekanini ko'rsatadi. Obrazlar mohiyatini ochish jarayonida adib shayx Ahmad Yassaviy ichki ruhiy quvvati, dil oynasi bo'lmish ko'zlaridagi magik kuch, duoning qudrati kabi faktorlarga tayanadi.

Qaytarilmas umr gʻanimatdir. U oqil insonga tavba qilishga ulgurish, gunohlardan forigʻ boʻlish, hasanotlarga musharraf boʻlish, haqlarni ado qilib, mazlumlaridan rizolik olish imkonini beradi. Buni yaxshi anglagan Saʼdulla Siyoyev Ahmad Yassaviyni Allohga tavakkal qilib, oʻlimga-da rizo boʻlib, haj safariga otlanayotgan holatda chizadi. Ota yurt osmoni, porloq yulduzlar, sahovatli oftob, qadrdon ariqlar, sersoya va sermeva dov-daraxtlar, gul-chechaklar, azim Sayhundan tortib, togʻu sahrolar, maʼmur kent u ovullargacha vido, bir ummat sifatida Allohga munojot aytadi. Neʼmatlariga shukrona keltiradi. Bunday tasvirlar taʼsirida biz uni har bir nafas omonatligiga iymon keltirgan koʻzi namlik va dili gʻamlilik bir hol kishisi sifatida taniymiz. Mushfiq ayolining oʻgʻli Ibrohimni oʻz bagʻrida qoldirish haqidagi iltimosini qabul qilganida esa, bandaning rizoligisiz-da biror amal qilmaydigan moʻmin sifatida koʻramiz. Adib: “Jannat onalar oyogʻi ostidadir”, degan muborak hadis mazmunini romanga singdirib yuboradi.

Birinchi kitobning “Bayʼating qabul boʻldi” nomli soʻnggi, yaʼni 27-faslida Marvga tilsiz yov – vabo hamla qilgani, Sulton Sanjar ham, ahli ulamo ham betadbir qolib, Ahmad Yassaviy ogʻir iztirob va andisha ichida oʻrtangan, har kim oʻz yogʻiga oʻzi qovurilgan tahlikali bir palla tasvirlanganining guvohi boʻlamiz.

Shayx-valiylar haqidagi tarixiy-biografik romanlar yuzaga kelishi ijtimoiy-hayotiy, maʼnaviy-ruhiy va adabiy-maʼrifiy asoslariga ega. Bu asarlar oʻz nafsini tanib, uni jilovlay olgan, uzluksiz tarbiya qilgan va oʻzida shakllangan yuksak insoniy fazilatlarni el va yurt manfaati yoʻlida safarbar eta olgan insonlar qismati haqida bitilgani bilan ahamiyatlidir.

S.Siyoyev Ahmad Yassaviy siymosini Qurʼon hikmatlari, hadislar mazmuni va tasavvuf gʻoyalarini qoʻshib kuylagan, insofu adolat, halollik va toʻgʻrilikni, oriflik, oshiqlik va uzlat bilan bogʻlab hayot kechirgan inson sifatida taqdim qilishga intilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov A. Muborak bobokalon qissasi. / Sa'dulla Siyoyev. Yassaviyning so'nggi safari. Roman. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – B.3-4.
2. Omanova M.A. Istiqlol davri o'zbek romanlarida shayx valiyar obrazining badiiy talqinlari – filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss... – Jizzax: 2022. – 129 b.
3. Omanova M.A., Yakubov I.A. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
4. Omanova M.A. The traditional motives in the plot and composition of realistic novels // "Theoretical & Applied Science" International Scientific journal Philadelphia, USA. 2019. - P. 412-415. (Impact Factor - 8.7).
5. Siyoyev Sa'dulla. Ahmad Yassaviy: roman. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – 336 b.